



**BADIIY ASARLARNI TARJIMA QILISH JARAYONIDAGI
O'ZIGA XOS QIYINCHILIKLAR**

Niluzar Ahmadaliyeva Rasuljon qizi

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Tarjimonlik fakulteti 2401-guruh talabasi

Nargiza Ernazarova Xidirovna

Ilmiy rahbar: Ingliz tili amaliy tarjima kafedrasida

katta o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada badiiy asarlarni tarjima qilish jarayonida yuzaga keladigan qiyinchiliklar, jumladan, madaniy va lingvistik tafovutlar to'g'risida so'z yuritiladi

Kalit so'zlar: omonimiya, idiomatik iboralar til, tarjima strategiyasi, tarjima uslubi, madaniy tafovutlar, ekvivalentlik, polisemiya

Badiiy tarjima — bu ikki madaniyatning o'zaro aloqasi, tilni o'zgartirish, va boshqa tilga o'zgartirilgan asarning badiiy qiymatini to'liq saqlab qolish demakdir. Bu jarayonda tarjimonning mahoratiga katta e'tibor beriladi va uning asosiy vazifasi asl asarning uslubini va badiiy tasvirlarini boshqa tilga to'g'ri o'zgartirishdir. Ayrim til vositalarining uslubiy manosi tushunishda asarning badiiy yaxlitligini, badiiy voqealilikni, xarakterlar va ularni munosabati haqida keng mushohadaga ega bo'lishi kerak.[1;102] Badiiy asarlar bizga ko'plab tarixiy malumotlar bilimlar tashuvchi hisoblanadi va bu bilimlarni malumotlarni yetkazuvchi asosiy omil bu tarjimadir. Ko'pincha badiiy asarlar ularni mualliflari tomonidan faqat o'zining tilida yani Asliyat tilida da yozilgan bo'ladi. Tarjimonlar esa ularni boshqa-boshqa tillarga o'girib muallifning fikrlari, his tuyg'ulari, hayot kechinmalari va xulosalarini barcha millatlar boshqa tilda so'zlashuvchi keng auditoriyaga yetkazadilar. Lekin bu jarayon oson kechmadligi mumkin chunki tarjima qilishda aynan badiiy tarjimada birmuncha qiyinchiliklar mavjud. Muallif tilidagi grammatika va boshqa tildagi grammatika va so'z strukturalari har xil bo'lishi va shu muammolar sababli bir so'z matnga boshqa bir mano olib kirishi yoki umuman tarjimada xatolik paydo qilishi mumkin. Biz bu muammolarni ikki turga bo'lamiz birinchisi-lingvistik qiyinchiliklar, ikkinchisi madaniyat bilan bog'liq muammolardir. [2; 3]

Lingvistik qiyinchiliklar

Lingvistik qiyinchiliklar tarkibiga

- Sinonimlar va omonimlar
- Polisemiya
- Grammatika
- Iboralar va Frazeologizm kabilarni kiritishimiz mumkin.





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

Aslini olganda sinonimlar bir biriga o'xshash bo'lgan lekin matnning kontekstiga muvofiq o'zgarishi mumkin bo'lgan so'zlar hisoblanadi. Barcha tillarda ham sinonimlar mavjud lekin barchasi ham bir usulda qollanilolmaydi. Sinonimlarni almashtirish maqsadga muvofiq emas chunki har bir sinonim o'zining qo'llanish yo'li va uslubiga ega.

Misol uchun Smart va intelligent so'zlari

Smart - ko'proq insonlarning tez va yaxshi fikr yurita olish qobiliyatini ifodalaydi hamda u bilim va konikmalar tufayli aqlli bo'lganligini ham bildiradi. Va uni qollashda tashqi korinishga ham etibor berish lozim.

In professor's perspective Malika is very smart student among others.

Professorni fikriga ko'ra boshqalarni ichida Malika judayam aqlli talaba.

My sister is a smart girl who always gets good grades.

Mening opam doim yaxshi baholarni oladigan aqlli qiz

Intelligent - bu insonlarni o'zining aqliy qobiliyatini yani ular kitoblar o'qib yodlab o'rgangan narsasini emas balki o'zining aqliy qobiliyati tufayli biladigan malumotlariga nisbatan qo'llaniladi.

Leonardo is intelligent man who is an expert in the fields of science and engineering.

Leonardo — ilm-fan va muhandislik sohalarida mutaxassis bo'lgan aqlli inson.

She is an intelligent student who always comes up with creative solutions to problems.

U aqlli talaba bo'lib, doimo muammolarga ijodiy yechimlar topadi. [3;3]

Polisemiya - bu bir nechta manoga ega bo'lgan so'zlar iboralardir har bir tilda ko'p manoli so'zlar uchraydi. Bunda birinchi topilgan mano lug'aviy mano qolganlari esa ko'chma manoda hisoblanadi. Ko'p manoli so'zlar tarjima qilish jarayonida ko'plab muammolar keltirib chiqarishi mumkin chunki tarjimon so'zni asar kontekstiga qarab topishi kerak. Agar boshqa manoda yozb qoyiladigan bo'lsa asar tarjimasida xatolik yuz beradi.

Masalan, " book "Bir matinda " kitob " degan manoni bildirsa, I'm reading a book about history of A.Temur

Men Amir Temur tarixi haqida kitob o'qiyapman

Boshqa bir manbada " restoran yoki mehmonxonadan joy band qilish" manolarini anglatishi mumkin: I need to book a table for two.

Men ikki kishilik stolni bron qilishim kerak.

Adabiy asarlarni tarjima qilishda grammatikaning o'zni juda ham muhimdir chunki har bir tilning o'z uslubi hamda o'z grammatik tuzilishi mavjud va bu tarjima jarayonida ozgina qiyinchiliklatga sabab bo'ladi. [4;104]

Masalan ingliz tilida fel egadan keyin kelsa o'zbek tilida oxirida keladi. Grammatikani yaxshi o'rganish va tahlil qila olish tarjimoni tog'ri va aniq bo'lishiga yordam beradi.

Har bir tilda idiom va frazalar mavjud uning manosi esa " alohida leksik birliklarning manolaridan farq qiladigan so'zlar guruhi " deb ataladi. Lekin bu idiom va frazalarni





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

to'g'ridan to'g'ri tarjima qilib bo'lmaydi chunki bu usulda asarni yoki matinni asl manosi yo'qolishi mumkin. Agar ularni so'zma so'z tarjima qilsak anglab bo'lmaydigan mano kelib chiqishi va foydalanuvchilarga tushinishda qiyinchiliklar tug'dirishi mumkin.

Misol uchun : on the tip of my tongue iborasi o'zbekcha tilimning uchida

Cunning iborasi - ilonning yog'ini yalagan

A plum job - maqul ish

To bear fruit - to'g'ri yondashmoq

Can leopard change his spot - ilon po'stini tashlagani bilan qilg'ini tashlamas

When pigs fly - tuyani dumi yerga tekkanda

Don't count your chickens - Jo'jani kuzda sanaymiz

Unfortunate man would be drowned in a tea - kambag'alni tuyani ustida ham it qopadi, degan manolarini ifodalaydi. [5;2]

Madaniyat bilan bog'liq bilimlar tarjimonida qanchalik ko'p bo'lsa tarjima qilish jarayonida shunchalik osonroq tarjima qilish imkoniyati mavjud bo'ladi. Sababi badiiy asarlarda madaniy nuanslar ham to'liq qamrab olishi mumkin. Tarjima qilinayotgan adabiyot o'zida aks ettirgan muayyan madaniyatdagi etiqodlar, qadriyatlar, va tarixiy jixatlarni o'girayotgan tiliga to'g'ri keladigan ekvivalenti bo'lmashligi mumkin. Insonlar o'zlari sevadigan mualliflar asarlarini o'qishni afzal ko'rishadi. Tarjimon va muallif mansub bo'lgan hudud va tildagi insonlar bularni tushunishi oson kechadi lekin bu madaniyat bilan tanish bo'lmaganlarda bu biroz qiyin bo'lishi mumkin. Shu sababli ham tarjimonlar matinning asl manosini saqlab qolish va yetkazish uchun ularning madaniyati bilan ham tanish bo'lishlari lozim. Tarjimonlar madaniyatlararo bilimlarini rivojlantirish juda ham muhim. Ular turli xil davlatlarni millatlarni madaniyati, qadriyatlari, turmush tarzi bilan tanish bo'lishlari kerak. [6;3]

Madaniy ekvivalentlik - bu bir tildagi so'zlar va iboralarni huddi shunday madaniy birlikda boshqa bir tilda mavjud bolishidir bunda tarjimonlar madaniyat lar o'rtasidagi farqlarni hisobga olib, manoni saqlab qolishlari zarur.

Badiiy asarlarni tarjima qilish jarayonida muqobil tarjimasi mavjud bo'lmagan so'zlarga ham duch kelish mumkin. Ularni tarjima qilish yo'llaridan biri esa - transliteratsiya (so'z talaffuzini berish) hisoblanadi.

XULOSA

Umumiy qilib aytganda adabiy asarlarni tarjima qilish uchun yetarlicha madaniyat bilan bog'liq bilimlar, ko'nikmalar va lingvistik bilimlar (grammatika, sinonim, strukturalar) bilan yaxshi tanish bo'lish va bularni barchasini amalda qo'llay olish kerak. Adabiy asarlarni tarjima qilish oddiy matnlarni tarjima qilishdan qiyinroq bo'lishi mumkin lekn to'g'ri uslublar, strukturalar bilan barcha manoni kontekstni to'g'ri va aniq yetkaza olish imkoniyati bor.





FOYDALANILGAN MANBALAR:

1. G'. Salomov Tarjima nazariyasiga kirish " O'qituvchi " 1978
2. <https://cyberleninka.ru/article/n/badiiy-tarjimaning-lingvomadaniy-aspektlari-va-tarjima-mahorati/viewer>
3. <https://www.thesaurus.com/e/grammar/smart-vs-intelligent/>
4. Tarjima nazariyasi I.G'afurov, O.Mo'minov, N.Qambarov "Tafakkur bostoni" Toshkent 2012
5. <https://cyberleninka.ru/article/n/ingliz-tilidagi-ayrim-idiomalarning-tarjimasi-xususida/viewer>
6. https://uz.wikipedia.org/wiki/Madaniy_xususiyatlar_tarjimasi
7. Peter Newmark - Translation theory , book Shanghai Foreign Language Education Press 1988

